

Yuristlar malakasini oshirish
markazi direktorining
2022-yil 5-apreldagi
10-um-son buyrug'iga
Ilova

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazining korrupsiyaga qarshi kurashish SIYOSATI

1. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazining (bundan buyon matnda – Markaz deb yuritiladi) korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati (bundan buyon matnda - Siyosat deb yuritiladi) Markaz xodimlari orasida hamda jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini oshirish maqsadida, Markazning yuqori ahloqiy me'yorlarga sodiqligini, shuningdek, Markaz xodimlari faoliyatida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo'l qo'ymaslikni aks ettiradi.

2. Ushbu Siyosat talablari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining talablari bilan bir vaqtda egallab turgan lavozimi va bajaradigan vazifa va funksiyalaridan qat'i nazar Markazning barcha xodimlariga tadbiiq etiladi.

3. Markazning kafedra va bo'limlari hamda hududiy filiallarining korrupsiyaga qarshi kurashishining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

Markazda korrupsiyani tubdan yo'qotishga erishish;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan toqatsiz munosabatni shakllantirish;

Markaz faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyani oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, ularga olib keluvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini ta'minlash.

4. Siyosat Markazning ichki hujjati sifatida yuqorida ko'rsatilgan asosiy maqsadlarga erishish uchun Markaz faoliyatida korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan asosiy talablar va tamoyillarni belgilab beruvchi asos hisoblanadi.

5. Markazga ishga qabul qilinayotgan har qanday shaxs ushbu Siyosat bilan imzo qo'ygan holda tanishishga va uning qoidalariga rioya qilishga majbur.

6. Markaz korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy maqsadlaridan kelib chiqib:

Markaz va Markaz xodimlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Yuristlar malakasini oshirish markazi Ustavi (Nizomi), mansab yo'riqnomalari hamda boshqa ichki hujjatlarda belgilangan maqsad, vazifalar va faoliyatning asosiy yo'nalishlariga rioya qilishlari lozim;

Markaz xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining odob-ahloq qoidalariga rioya qilishlari shart;

Markaz xodimlari korrupsiyaga “mutlaqo toqatsizlik” tamoyilga tayangan holda korrupsiya bilan bog‘liq har qanday xatti-harakatlarda ishtirok etishi, ya’ni pora beruvchining manfaatlarini ko‘zlab harakat qilishi yoki harakatsizligi uchun bevosita yoki bilvosita, shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora, ya’ni pullar, qimmatbaho qog‘ozlar, boshqa mol-mulk, mulkiy tUSDagi xizmatlarni berishni talab qilish, tovlamachilik qilish, va’da berish va pora berish, pora berish va (yoki) olishda vositachilik qilish, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to‘lovlarni olish, shaxs tomonidan pora olish yoki g‘ayriqonuniy boshqa maqsadlarda o‘z xizmat mavqeidan noqonuniy foydalanishi qat’iyan taqiqlanadi;

Markaz va Markaz xodimlari o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish va (yoki) Markaz manfaatlarini ifodalash doirasida vijdonlilik va halollik tamoyillariga amal qilishi, shaxsiy manfaatlarini hisobga olgan holda o‘zlarining xizmat mavqeidan va (yoki) adliya organlarining mol-mulkidan foydalanmaslik va manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan saqlanishlari lozim;

Markaz va Markaz xodimlari o‘z xizmat majburiyatlarini bajarish bilan bog‘liq holda jismoniy va yuridik shaxslardan biron-bir sovg‘a yoki ish jarayonida mehmondo‘stlikning belgilari, qarz, kafolatlar, kafilliklar, mukofotlar shaklida rag‘batlantirish vositalarini, naqd pul mablag‘lari yoki ularning ekvivalenti, qimmatli qog‘ozlar ko‘rinishida moddiy yordam qabul qilish taqiqlanadi;

Markaz va Markaz xodimlari boshqa xodimlarga ularning shaxsi bilan bog‘liq bayramlar (tug‘ilgan kun, bolaning tug‘ilishi, Vatan himoyachilari kuni, Xalqaro xotin-qizlar kuni)da beridigan, xizmat majburiyatlarini bajarishi bilan bog‘liq bo‘lmagan sovg‘alar berish Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga muvofiq amalga oshirishlari kerak;

Markaz xodimlarini tanlash, ularni attestatsiyadan o‘tkazish va faoliyatini baholash, shu jumladan mukofot pullarini to‘lash, ustama haqlar va boshqa turdagi mukofotlarni belgilash jarayoni barcha xodimlar uchun shaffof, teng va xolis bo‘lishi lozim;

Markaz kontragentlar bilan munosabatlarda o‘z faoliyatini Adliya vazirligining korrupsiyaga qarshi kurashish Siyosatning asosiy tamoyillari va talablariga muvofiq amalga oshirishi shart;

Markaz qonunda nazarda tutilgan hollarda xayriya va homiyliklarni olgan paytda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, mablag‘larni qonunda va (yoki) shartnomada belgilangan maqsadlar uchun samarali sarflanishini ta‘minlash, shuningdek Internet tarmog‘idagi o‘zining rasmiy veb-saytlarida imkon qadar barcha choralarni ko‘rishlari kerak;

Ichki xujjatlarni huquqiy ekspertizadan o‘tkazishda hujjatlarda korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishiga imkon yaratadigan korrupsiyaviy omillar kelib chiqishini oldini olish, aniqlash va istisno qilish maqsadida ekspertiza o‘tkazilishi lozim;

Adliya organlari va muassasalari xodimlari, advokatlar, notariuslar, yuriskonsultlar, patent vakillari, mediatorlar hamda boshqa soha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishda O‘zbekiston Respublikasi qonun

hujjatlari va Markazning ichki hujjatlariga muvofiq halol, adolatli va obyektiv asosda ta'lim berilishi lozim;

Markaz faoliyatini moliyalashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi lozim;

Markazda chet el fuqarolarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, Markaz professor-o'qituvchilari va tinglovchilarining xorijiy davlatlardagi o'quv va ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish hamda tajriba orttirishi xalqaro shartnomalar, davlat organlari o'rtasida bitimlarni tuzishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasliklari kerak.

7. Xodimlarning faoliyatini nazorat qilish uchun Markaz o'quv xonalarida video va audio yozuv kameralari joylashtiriladi, ularning yozuvlari Markazning mas'ul xodimlari tomonidan doimiy ravishda kuzatib boriladi. Markazning rasmiy veb-saytlariga korrupsiya xavfi yuqori bo'lgan ayrim jarayonlarning onlayn translyatsiyalari joylashtiriladi (xususan, xodimlar bilan suhbat o'tkazish va ularni sinovdan o'tkazish, komissiya yig'ilishlari, tinglovchilardan yakuniy sinov (suhbat)larni o'tkazish va boshqalar).

8. Markaz xodimlari va tinglovchilarda korrupsiyaga qarshi amaldagi qonun hujjatlari talablari, ushbu Siyosat qoidalari yoki Markazda korrupsiyaga qarshi boshqa chora-tadbirlar va tartib-taomillar bilan bog'liq bo'lgan har qanday savollar bo'lsa, ular Markaz korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi yoki Markazning "halollik ofitseri"ga murojaat qilishlari mumkin.

9. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi xabarlarni quyidagi aloqa kanallari orqali berish mumkin:

Adliya vazirligining "1008" telefon raqami va (71) 234-52-40 telefon raqami;

Markazning Telegram kanallari;

Markazning rasmiy veb-saytlarida joylashtirilgan shakllar;

Markazning elektron pochta manzillari;

to'g'ridan-to'g'ri huquqni muhofaza qilish organlariga.

10. Markazning aloqa kanallariga kelib tushgan barcha xabarlar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va Markazning ichki hujjatlariga muvofiq Markaz tizimining mas'ul xodimi tomonidan xolis tarzda va o'z vaqtida ko'rib chiqiladi.

11. Vazirlik tizimida korrupsiya faktlari to'g'risida vijdonan xabar bergan Markaz xodimlari, agar bu ma'lumotlar tasdiqlangan bo'lsa, ichki hujjatlarga muvofiq rag'batlantirilishi mumkin.

12. Ushbu Siyosat quyidagi hollarda qayta ko'rib chiqilishi va tuzatilishi kerak:

korrupsiyaga qarshi kurashish amaldagi siyosat va tartib-taomillarni qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqaradigan holda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi o'zgarganda;

korrupsiyaga qarshi kurashish samarasiz nazorat va tartib-taomillar aniqlanganda va Markaz faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlarni takomillashtirishga zarurat tug'ilganda;

Markaz tizimining tashkiliy tuzilmasi va (yoki) Markaz tomonidan o'z vazifalarini bajarishi xususiyatlari va boshqalar o'zgarganda.